

ANEMIYA

Akbarova Nilufar Baxtiyor qizi*Pop Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi Texnikumi**Mutaxassislik fan o'qituvchisi*

Kalit so'z: qondagi eritrositlar soni, gemoglobin miqdorini kamayishi, qon yaratish jarayonini buzilishi, soch to'kilishi, kamqonlik, eritrositlar, gemoglobin.

Anemiya (yunoncha an – inkor qo'shimchasi va haima – qon), kamqonlik – qonda eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdorining kamayishi, sifatining o'zgarishi bilan kechadigan kasallik. Anemiyaga qon yaratilish jarayonining buzilishi, asosiy qon yaratuvchi to'qima – ko'mikning o'z funksiyasini yetarli bajara olmay qolishi sabab bo'lishi mumkin. Temir va vitamin B12 yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan anemiya birmuncha keng tarqalgan. Oz-ozdan uzoq vaqt qon ketib turganda, mas, bavo'sir yoki me'da va o'n ikki barmoq ichak yarasi kasalligida ham ko'pincha anemiya kuzatiladi. Temir yetishmasligiga aloqador Anemiyaga bot-bot homilador bo'lish, uzoq vaqt bola emizish sabab bo'ladi, chunki homiladorlik va emizuklik davrida ona organizmidagi temir zaxirasining bir qismi bolaga o'tadi. Kichik yoshdagi bolalarda kuzatiladigan kamqonlik ularni noto'g'ri ovqatlantirish, shuningdek ovqatning kam-ko'st bo'lishi oqibatida ro'y beradi. Eritrotsitlar soni sal kamaygani yoki raso bo'lgani holda, qonda gemoglobin miqdorining ozayishi temir yetishmasligiga aloqador anemiyaning asosiy belgilaridandir. Bemorning rangi siniqqan bo'lib, aksariyat tez charchash, bosh og'rishi, bosh aylanishi, ko'z oldi jivirlashishidan shikoyat qiladi, soch to'kiladi, tirnoq mo'rtlashib sinishga moyil bo'lib qoladi. Temir yetishmasligiga aloqador anemiyaning oldini olish va davolashda qon yo'qotish ehtimoli bo'lgan manbalarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish, homilador bo'lish va tug'ishni ma'lum darajada rejalashtirishga erishish, beka mu ko'st ovqatlanishga rioya qilish lozim. Vitamin B12 yoki folat kislota yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan anemiya ancha kam uchraydi. Anemiyaning bu xilida o'ziga xos alomatlar: til achishishi, kasallik o'tkazib yuborilganda nerv sistemasining zararlanish (funikulyar miyeloz) belgilari kuzatiladi. Bu xil anemiyaning oldini olish uchun me'da-ichak yo'lining surunkali kasalliklari, ayniqsa ich ketishi bilan o'tadigan kasalliklarni o'z vaqtida aniqlab davolash juda muhim. Eritrotsitlarning ko'plab yemirilishi bilan bog'liq gemolitik anemiya xillari ko'p. Ular irsiy yoki orttirilgan bo'lishi mumkin, odatda teri hamda shilliq qavatning sarg'ayishi, eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdorining

kamayishi bilan kechadi. Barcha xil anemiyada vrachga murojaat etish va o'z vaqtida to'g'ri davolanish zarur.

Adabiyotlar.

1. H.I.Shukorov, S.Q.Qanoatov" Jamoada hamshiralik ishi,, Toshkent 2016 yil
2. D,DSharipova. Q,Sodiqova .G,A Shaxmurodova. T,L Arbuzova. N,SH, Mannopova "Valeologiya asoslari,, Toshkent 2010 yil.
3. Z,F. Mavlyanova. M,Z Ravshanova "Reabilitatsiya asoslari,,

Internet saytlari:

1. www.ziynet.uz
2. www.google.uz
3. www.arxiv.uz